



TRANSPORT XAVFSIZLIGI VA UNING TUSHUNCHASI, STRATEGIK YO'NALISHLAR ULARNI ZARARSIZLANTIRISH

Ostonov Asror Abdulla o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575649>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2023

Accepted: 25th January 2023

Online: 27th January 2023

KEY WORDS

Transport turlari, transport hodisalari, transport xavfsizligi, yo'l harakati xavfsizlik, transport ishtirokchilari, transport qonunchiligi ustidan prokuror nazorati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada transport xavfsizligi va uning tushunchasi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning qonuniy kafolatlari, transport xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad haqida so'z yuritiladi. Bu borada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning yangicha va zamoviy mexanizmlarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tadqiq etish va bartaraf etish bo'yicha samarali metodlarini ishlab chiqish muhim ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili qariyb **1,4 millionga** yaqin odam yo'l transport hodisalari qurboniga aylanadi. O'zbekistonda birgina 2021-yilda 7 mingga yaqin yo'l-transport hodisalari sodir etilgan bo'lib, ularda 1 600 dan ortiq odam vafot etgan.

O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramasdan, joriy holat ushbu sohadagi ishimizni takomillashtirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va uni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, Yaponiyada yo'l-transport hodisalari statistikasi va uning oqibatida halok bo'lganlar soni kamayib bormoqda

Transport xavfsizligi to'g'risidagi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish transport prokuraturasi faoliyatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining **"Prokuratura to'g'risida"**gi qonunining 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.¹

Mazkur qonunning 4-moddasida esa prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish vakolatiga ega ekanligi qayd etilgan.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-106197?ONDATE=21.04.2021>



Ushbu nazorat transport sohasini rivojlantirish, transport xizmatlaridan foydalanadigan fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda davlat va biznes hamjamiyati manfaatlariga rioya etilishining kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida transport sohasi quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Temir yo'l transporti;**
- **Avtomobil transporti;**
- **Havo transporti;**
- **Suv transporti;**
- **Shahar yo'lovchilar tashish elektr transporti;**
- **Quvur (truboprovod) transport.**

Hozirda respublikada umumiy foydalaniladigan temir yo'l uzunligi 3,1 ming km ni tashkil etadi. Mazkur temir yo'l orqali har yili 413 ming 162 nafardan ortiq yo'lovchi, 7395,6 ming tonna yuk tashiladi.

Har bir transport turi texnik va iqtisodiy tomonidan belgilangan aniq funksiyani bajarib, geografik va tarixiy xususiyatlari bilan farqlanadi.

Masalan, temir yo'l transporti asosan ommaviy yuklarni o'rta va uzoq masofalarga tashish uchun, shuningdek, yo'lovchilarni o'rta masofalarga va shahar atrofi transportida tashish uchun ishlatiladi.

Butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham transport sohasida tubdan yangi vazifalar belgilab qo'yildi. Xavfsiz transport koridorlari yaratish fuqarolarning hayot tarzini tubdan o'zgartirish maqsadi amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugunga qadar transport xavfsizligi sohasiga doir bir qancha qonunlar, prezident farmonlar va qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari ishlab chiqilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Transport to'g'risida"gi, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi havo transportining xavfsizligini ta'minlash choralari to'g'risida"gi, "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining "Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazzimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qarorlari transport xavfsizligini ta'minlash bo'yicha eng muhim normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Mazkur qonunchilik hujjatlari ustidan nazoratini amalga oshirish prokuratura organlarining vakolatiga kirgan holda, ushbu nazorat monitoring tasdiqlangan reja asosida choraklar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'limga olib kelgan yo'l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo'lib, avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda.



Jumladan, yo'l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy talablariga to'liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo'naltirilgan samarali tizimni yo'lga qo'yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 36-maqsadi bevosita barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish hisoblanadi. Bu esa transport sohasini rivojlantirish qanchalik muhim ekanligini anglatadi.

Hozirgi kunda transport sohasini rivojlantirish uning xavfsizligini ta'minlash logistika hamda turizm sohasini rivojining kafolati hisoblanadi. Xususan, Singapur davlatida transport-logistika sohasining rivojlanishi mamlakatning rivoji uchun juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalari, moliyalashtirishning pasayishi, transportchilarning ekspluatatsion harakatlarining ko'payishi davlatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Transport xavfsizligi, birinchi navbatda, yo'l harakati xavfsizligi, ichki suv transporti, kichik aviatsiya sohasiga tegishlidir.

Yuk va yo'lovchilarni tashish hajmining pasayishi sohadagi salbiy hodisalarni kuchaytiradi, bu esa biznesning pasayishiga, tashuvchilarning bankrotligiga, korrupsiyaning kuchayishiga va transportni ta'minlash nuqtai nazaridan fuqarolarning huquqlarini buzilishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan prokuratura tekshiruvlari transport xavfsizligi to'g'risidagi qonunlarni bajarish nuqtai nazaridan o'tkazilishi kerak.

References:

1. Амбарцумян В.В. Проблемы обеспечения безопасности дорожного движения: дис.... д-ра юрид. наук.- Ереван, 1980;
2. Игнатов Л.И. Организационные основы деятельности органов внутренних дел по обеспечению безопасности дорожного движения: учебное пособие. - М.,1991;
3. Ротенберг В.В. Основа надежности системы «водитель-автомобиль-дорога—среда». - М., 1986.
4. Веремеенко И.И. Механизм административно-правового регулирования в сфере охраны общественного порядка: в 2 ч. — М., 1981 . — Ч. 1. - С. 13.
5. Лукьянов В.В. Безопасность дорожного движения. — С. 16.
6. Лукьянов В.В. Состав и квалификация дорожно-транспортных преступлений и административных правонарушений. — С. 6.